

NASLCHILIKNING IQTISODIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Mirzamaxmud Mirzakarimov

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Chorvachilikda innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslublari hamda mintaqalarning chorvachiligidagi innovatsiya asosida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil etilganda, chorvachilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi o‘sishi hamda bu jarayonni jadallashtirish maqsadida ishlanma va intensivlashtirishning yangi vositalarini qo‘llashni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ta’minlash zarurligi aniqlandi. Chorvachilik sohasini innovatsion rivojlantirish samaradorlik ko‘rsatkichlari olingan samara turidan kelib chiqqan holda tizimlashtiriladi va turlicha xarajatlar bilan solishtiriladi. Chorvachilik sohasida samaradorlik turlari tarkibida biologik samaradorlik alohida ahamiyat kasb etib, chorvachilikda mahsuldarlikning, sarflangan ozuqa hajmiga nisbatan olingan mahsulot hajmining oshishi bilan izohlanadi. Innovatsion faoliyatning texnik-texnologik samaradorligi bir shartli chorva mol hisobiga chorvachilik mahsulot hajmining ko‘payishi, fond va energetik resurlar sig‘imining kamayishi bilan aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, qoramolchilik, naslchilik, selektsiya, iqtisodiy samaradorlik, tannarx, foyda, rentabellik, intensiv usul

Keyingi paytlarda iste’molchilarning sifatli mahsulotga bo‘lgan talabi kundankunga ortib bormoqda. Chunki, hozirgi paytda Respublikamizning ichki bozorlari xorijdan keltirilayotgan sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabi katta. Bizning asosiy maqsadimiz chorvachilikda naslchilik tarmog‘ini tubdan rivojlantirib ichki bozorimizda o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli go‘sh mahsulotlarni ko‘paytirish va to‘ldirish, hamda naslli buzoqlar zotlarini maxalliylashtirish.

Yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqarish, ta’minlash va rejalashtirishda zamonaviy baholash uslublari va sifat ko‘rsatkichlarining standartlarini yaxshi bilish lozim. Shu sababdan biz qo‘rqmay ayta olamizki qishloq xo‘jaligida naslchilikni rivoji aholining extiyojlarining katta bir qismini qoplay oladi bugungi kunda bu soxaga qaratilayotgan etibor xam o‘z tastig‘ bo‘la oladi.

Chorvachilik – qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. U muhim ozuqa mahsulotlarini – sut, go‘sht, tuxum, asal, baliq kabi chorvachilikdan olinadigan oqsil moddasi manbasi, sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlovchi sanoat uchun xomashyo (sut, go‘sht, teri, jun, pilla va boshqalar) va o‘simlikchilik uchun organik

o‘g‘itlar tayyorlab berish bilan xizmat qiladi. Chorvachilik sohasida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar hamda diversifikatsiyalash natijasida respublikamizda 2021 yilda qoramollar bosh soni 6 mln 571,8 ming boshdan 2022 yilda 12 mln 414,7 ming boshga yoki 188,9 foizga, shundan sigirlar soni mos ravishda 2 mln 821,3 ming boshdan 4 mln 418,3 ming boshga yoki 156,6 foizga, qo‘y va echkilar soni 11 mln 351,9 ming boshdan 20 mln 680,5 ming boshga yoki 182,2 foizga, parrandalar soni esa 18 mln 775,7 ming boshdan 71 mln 343,4 ming boshga yoki 3,8 martaga o‘sdi .

Ma’lumki, har qanday tarmoqni innovatsion rivojlantirish, avvalambor, ishlab chiqarishni intensivlashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, takomillashgan, innovatsion texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni, shuningdek, mehnatni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanish natijasida mavjud resurslardan samarali va to‘liq foydalanish hamda mehnat unumdorligining oshishini ta’minlaydi.

Chorvachilik tarmog‘ida innovatsion faoliyat deganda chorvachilik tarmog‘ining yangi yoki yaxshilangan (sifat, ko‘rinishi va samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha) mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatga aytildi. Ushbu faoliyat ilmiy tadqiqot va ishlanma yoki ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda bozorni egallah maqsadida ilg‘or tajribalardan foydalanish natijasida vujudga keladi. Mavzuga oid adabiyotlar tahliliga ko‘ra chorvachilikni innovatsion rivojlantirishning uch yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular: Intensiv (o‘z tajribasiga asoslangan); Intensiv (xorij tajribasiga asoslangan); Ekstensiv (qishloq aholisining an‘anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini saqlab qolish) hisoblanadi. Chorvachilikda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlariga quyidagilar kiradi a) ishlab chiqarishning tabiiy-iqlim sharoitlariga bog‘liqligi; b) ishlab chiqarish jarayonida biologik aktivlarni ishlatish - o‘simliklar va hayvonlar, yerlar c) innovatsion jarayonlarni boshqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi; d) mazkur sohada ishlab chiqarish va moliyaviy tavakkalchilikning boshqa sohalarga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi. Chorvachilikda innovatsion rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning uslublari hamda mintaqalarni chorvachiligidagi innovatsiya asosida rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil etilganda, chorvachilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi o‘sishi hamda bu jarayonni jadallashtirish maqsadida ishlanma va intensivlashtirishning yangi vositalarini qo‘llashni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni ta’minalash zarurligi aniqlandi.

Chorvachilik sohasini innovatsion rivojlantirishda foydalaniladigan samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Sohada olingan samaradan kelib chiqqan holda samaradorlikning texnik-texnologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik ko‘rinishlari

mavjud.

Chorvachilik sohasini innovatsion rivojlantirish samaradorlik ko'rsatkichlari olingan samara turidan kelib chiqqan holda tizimlashtiriladi va turlicha xarajatlar bilan solishtiriladi. Chorvachilik sohasida samaradorlik turlari tarkibida biologik samaradorlik alohida ahamiyat kasb etib, chorvachilikda mahsulorlikning, sarflangan ozuqa hajmiga nisbatan olingan mahsulot hajmining oshishi bilan izohlanadi. Innovatsion faoliyatning texnik-texnologik samaradorligi bir shartli chorva mol hisobiga chorvachilik mahsulot hajmining ko'payishi, fond va energetik resurlar sig'imining kamayishi bilan aniqlanadi.

Shuningdek, texnik-texnologik samaradorlik chorvachilik sohasini texnik-texnologik qayta jihozlash maqsadida amalga oshirilgan innovatsion ishlanmalarga sarflangan mablag' hisobiga olingan mahsulot hajmi (qiymati)ni aniqlash orqali ham ifodalanadi. Chorvachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi.

Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, baliqchilik, asalarichilik, andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishslash sanoati korxonalari uchun go'sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. 2021-2022 yillarda respublikada aholi jon boshiga o'rtacha 34 kg go'sht (tirik vaznda), 148 kg. sut yetishtirilgan.

Bu inson organizmi uchun zarur miqdor yoki tibbiyot normativlaridagiga nisbatan ancha kam. Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbik etish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyatning ekologik jihatdan toza mahsulotlarga bo'lgan talabi o'sib bormoqda. Ammo bu boradagi talab hozirgi davrda to'liq qondirilgani yo'q. Muammoni hal etish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish kerak. Bu jarayonni bir necha yunalishlar bo'yicha amalga oshirish mumkin.

Chorvachilik bino-inshootlari fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olgan holda moslashtirilishiga, tegishli vositalar bilan ta'minlanishga, chorva hayvonlari yaxshi parvarishlanib, sifatli mahsulot yetishtirishda yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishiga erishish lozim. Shundagina tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilib, mehnat unumdarligining oshishi ta'minlanadi. Naslchilik

ishlarini rivojlantirib, sermahsul chorva zotlarini yaratib, ular ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishini ta'minlash, bunda zotli, sermahsul chorva hayvonlarini sotib olish variantidan foydalanishni ham esdan chiqarmaslik kutilgan natijaga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1. B.Z.Nosirov, Peculiarities of formation and development of the regional food market (on example of Andijan region. Abstract of the diss. for PhD. T.: SISM, 2004.
2. Юрий Наумов, Игорь Пугач. Проблемы и перспективы развития животноводства в Узбекистане. Discussion paper. 2019. #188. Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO).
3. Ю.Б.Юсупов. Ц.Лерман, А.С.Чертовицкий, О.М.Акбаров. Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва тараққиёт истиқболлари. Аграр секторни ривожлантириш тенденциялари нуқтаи назаридан таҳлил.. БМТ Тараккиёт дастури, Ўзбекистон Тошкент 2010.
4. B.Nosirov, M.Mirzakarimov. Features of development of milk production in Uzbekistan. The scientific heritage. No 91 (2022) p.32-35. ISSN 9215-0365. DOI: 10.5281/zenodo.6695687.
5. B.Nosirov. Some problems of development of livestock industry. Science and education in agriculture. Volume 1, Issue 2. 2022. <https://www.seagc.andqxai.uz>
6. Nosirov B. Z., Ergashev A. A., Islamova D. T. Development prospects of food markets in Andijan province // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2020. №1 (1). URL: <https://theoria.apni.ru/article/17-development-prospects-of-food-markets>
7. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rahmonova. Properties and potential of walnut growing in Uzbekistan. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Volume 6, Issue 5, Page No. 140-146. ISSN : 2581-4230, <https://journalnx.com/papers/20150963-potential-of-walnut.pdf>
8. B.Nosirov, B.Rahmonova, D.Islamova, Sh.Yoqubov The role of increasing the economic efficiency of potato production in food supply of the population of Uzbekistan. Journal of Xi'an University of Architecture & Technology. Volume XIII, Issue 5, 2021. P. 560-567. ISSN: 1006-7930. <https://www.xajzkjdx.cn/gallery/58-may2021.pdf>
9. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. <http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf>

10. *B.Nosirov, Sh.Tulakov.* Opportunities to increase land efficiency in farming. Innovative Technologica: Methodical Research Journal (IT). ISSN: 2776-0987. Volume 2, Issue 5, May, 2021. 175-179. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/84>
11. *B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva.* Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>
12. B.Nosirov. Features of development of livestock industry in the field of food security. Sustainable agriculture. 3(15).2022. p.17-20. <http://sa.tiame.uz/en/page/arxiv>
13. B.Nosirov. Basis for the development of the regional food market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 1(11), 2021. p.65-71.
14. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. <http://sa.tiame.uz/en/page/arxiv>
15. *B.Nosirov, A.Raximov.* Development of wholesale food markets. American Journal of Science and Learning for Development. Volume 2, No 1. Jan-2023. P. 47-50. ISSN: 2835-2157. <http://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/article/view/898>
16. *B.Nosirov, D.Fakhreddinova .* Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy. Journal of New Century Innovations. Volume 23, No 2. February-2023. P. 19-24. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3748/3539>
17. *B.Nosirov, A.Abdurashidov.* Development of elements of food markets. Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 4, Issue 3, 2023. P. 881-886. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3544/3398>